

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Pedagogika va psixologiya fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Zamonaviy tahdidlar sharoitida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish va xavfsizligini ta'minlashning innovatsion modellarini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning asl sabab va omillarini chuqur tahlil qilishga oid ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib boriladi; - ijtimoiy xavfli xulq-atvor belgilariga ega bo'lgan bolalarni erta aniqlash va ular bilan manzilli ish olib borish bo'yicha ilmiy asoslangan metodik tavsiyalari ishlab chiqiladi; - huquqiy tartibga solish sohasida voyaga yetmaganlar xavfsizligi va profilaktika ishlarini qamrab olgan normativ-huquqiy hujjat loyihasi uchun tavsiyalar tayyorlanadi; - ota-onalar va ta'lim muassasalarida zamonaviy tahdidlar (kiberhujumlar, ijtimoiy tarmoqlardagi xavflar) to'g'risida ma'lumotlarni o'zida jamlagan media mahsulotlar yaratiladi; - jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning jazoni o'tab chiqqanidan so'ng jamiyatga qaytarilishi va ijtimoiy moslashuvi uchun mexanizmlar majmui ishlab chiqiladi - profilaktika inspektorlari, psixologlar va pedagoglar uchun innovatsion maxsus o'quv dasturlari, qisqa media qo'llanmalar va uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish. Olingan natijalar Ichki ishlar vazirligi va O'zbekiston mahallalari uyushmasi tizim tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida natijalar Ichki ishlar vazirligi va O'zbekiston mahallalari uyushmasining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o'quv qo'llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar natijalar Ichki ishlar vazirligi yoki O'zbekiston mahallalari uyushmasining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.